



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
- PREZIDENTNING
PAXTACHI TUMANIDAGI
XALQ QABULXONASI

Xalq deputatlari Paxtachi
tumani Kengashi raisi
M.Ya.Xamdamovga

140600, Zioyuddin sh., M.Ulug'bek ko'chasi,204
Tel: (366) 403-10-56, 404-10-00

2023 yil «7» avgust №197 xq-23-son

A X B O R T N O M A

***“Xalq deputatlari Kengashining
navbatdagi sessiyasida
ko‘rib chiqish uchun”***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi orqali “Qaynarbuloq” mahallasida yashovchi fuqaro Yuldosheva Fotima va bir gurux fuqarolar tomonidan 2023-yil 10-iyul kuni №65895-xq/23-raqami bilan yo‘llagan murojaatini Paxtachi tuman “Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi” maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish shu’basi boshlig‘i Xidirov Shaxriddin Erkinovich va “Qaynarbuloq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Usmonova Tozagul Ravshanovnalarning murojaatni xolisona o‘rganmasdan, murojaatchilar bilan suhbatlashmasdan 2023 yil 19-iyul kuni o‘rganish dalolatnomasi tuzgan. Lekin o‘rganish dalolatnomasi bilan murojaatchilarning hech biri tanishtirilmagan.

Xalq qabulxonasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentyabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qonunning 11-moddasiga asosan monitoring o‘tkazildi, monitoringda ijrochi Sh.E.Xidirov o‘zining tushuntirish xatida fuqaro F.Yuldosheva bilan telefon aloqasi yomonligi sababli tekshiruv vaziyatini to‘liq aytishni imkoni bo‘lmadi deb izoh bergan.

MFY raisi T.R.Usmonova o‘zining tushuntirish xatida MMTB xodimlari tomonidan murojaat o‘rganilganligini aytishdi, ushbu jarayonda men betobligim sababli qatnasha olmadim deb izoh bergan .(tushuntirish xatlari ilova qilinadi).

“Bo‘ston” mahallasida yashovchi fuqaro Qodirova Yulduz Xasanovna tomonidan 2023-yil 21-iyul kuni №93076-s/23-raqami bilan “Turmush o‘rtog‘im 2-guruh nogironi, voyaga yetmagan 2-nafar farzandim bor, moddiy yordam yoki bolalar nafaqa puli olishda yordam bering” mazmunida yo‘llagan murojaati Paxtachi tuman soliq inspeksiyasi 4-sektor kotibi J.Jomurodov va “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi M.Abdurazoqovalarning murojaatni xolisona o‘rganmasdan, 2023 yil 02-avgust kuni Yu.Qodirovani oilasida DAMAS rusumli avtomashinasi, 2 ta

turar joyi borligi hamda Ziyovuddin dehqon bozori xududida savdo do'koni mavjudligi sababli moddiy yordam tayinlanishi rad etilganligi tushuntirildi deb o'rganish dalolatnoma rasmiylashtirgan (mulk bor yo'qlini to'g'risida ma'lumot yo'q). Lekin bu haqida murojaatchi bilan suhbatlashmagan va o'rganish dalolatnomasi bilan murojaatchi tanishtirilmagani aniqlangan.

Vaholanki murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni vakolatli idoralar tomonidan sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, murojaatlarni ko'rib chiqish har bir rahbarning ustuvor va birinchi darajali vazifasi ekanligini alohida ta'kidlash lozimdir.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan **“Xalqni rozi qilish”** oliy maqsadimiz, **“Inson qadri”**ni ulug'lash har bir fuqaroni murojaatini tinglab yechimini topish, barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifa qilib belgilangan bir vaqtda yuqorida nomlari keltirilgan ma'sullar tomonidan nomigagina dalolatnoma tuzib, yolg'on ma'lumotlar bilan murojaatlar yopishga harakat qilayotgani kuzatilmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlarini sifatli ijrosini ta'minlash, aholi muammolarini erta aniqlash, hal etilishini ta'minlash, shuningdek, mavjud yuzaga kelayotgan muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etilishini oldini olish yuzasidan **“axborotnoma”**da ko'rsatilganlarni Xalq deputatlari tuman Kengashida muhokama qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblayman va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 fevral kunidagi PQ-4197-sonli **“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyati bilan bog'liq nizomlarni tasdiqlash to'g'risida”**gi Qarorining 1-ilovasi 5-6-bandlariga asoslanib,

S O' R A Y M A N:

1. Ushbu axborotnoma qayd etilgan qonun talablari buzilishi holatlari yuzasidan ayibdorlarga nisbatan qonuniy jazo choralari ko'rib javobgarlik masalasini hal etilishini;

2. Axborotnomani ko'rib chiqib natijasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Paxtachi tumanidagi Halq qabulxonasiga yozma ma'lumot berishingizni.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Paxtachi tumanidagi Xalq qabulxonasi
mudiri;-**



A.X. Haqnazarov

Bajaruvchi: M. Rashidov
Tel: (66) 404-10-00